

Otaxonova Sevaraxon To'likonova,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti «Psixologiya» kafedrası o'qituvchisi

ABDURAUF FITRAT VA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASARLARIDA SALBIY XULQ VA TARBIYA MASALALARI

UDK: 159.922.736; 17.021.1

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_2_7](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_2_7)

OTAXONOVA S.T. ABDURAUF FITRAT VA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASARLARIDA SALBIY XULQ VA TARBIYA MASALALARI

Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlari Abdurauf Fitrat va Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlarida yoritilgan salbiy xulq-atvor va farzand tarbiyasi masalalari pedagogik hamda psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda Fitratning "Oila" asarida bayon etilgan axloqiy tarbiya, ixtiyoriy va e'tiroziy fe'llar haqidagi qarashlari hamda ularning bola xulq-atvori shakllanishidagi o'rni ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Behbudiyning "Padarkush" asari misolida oilaviy muhit, ota-ona mas'uliyati va tarbiya jarayonidagi beparvolikning shaxs rivojiga salbiy ta'siri psixologik jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy yondashuv va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Natijada jadid ma'rifatparvarlari qarashlarida salbiy xulq-atvorning shakllanishi asosan tarbiya, oilaviy muhit va ma'rifat darajasi bilan bog'liqligi asoslab berildi. Mazkur ilmiy qarashlar zamonaviy pedagogika va psixologiya nuqtai nazaridan muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatildi.

Tayanch so'z va tushunchalar: axloq, tarbiya, yaxshi xulq, yomon xulq, ixtiyoriy fe'l, e'tiroziy fe'l, fe'l mayllari.

ОТАХОНОВА С.Т. ВОПРОСЫ НЕГАТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В ТРУДАХ АБДУРАУФА ФИТРАТА И МАХМУДХУДЖИ БЕХБУДИ

В данной статье педагогико-психологически анализируются вопросы негативного поведения и воспитания, отражённые в трудах просветителей джадидов Абдурауфа Фитрата и Махмудходжи Бехбуди. Особое внимание уделяется произведению А. Фитрата «Семья», в котором раскрываются взгляды автора на нравственное воспитание детей, добровольное и протестное поведение, а также их роль в формировании личности ребёнка. Кроме того, произведение М. Бехбуди «Падаркуш» рассматривается с точки зрения психологического анализа семейной среды и ответственности родителей за воспитание детей. В исследовании применены методы теоретического анализа, сравнительного подхода и научного обобщения. Полученные результаты показывают, что в работах джадидских мыслителей формирование негативного поведения связывается прежде всего с уровнем воспитания, семейной средой и недостатком просвещения. Научные идеи данных мыслителей сохраняют актуальность и могут быть использованы в современных педагогических и психологических исследованиях.

Ключевые слова и понятия: нравственность, воспитание, хорошие манеры, плохие манеры, добровольное поведение, протестное поведение, склонности поведения.

OTAKHONOVA S.T. ISSUES OF NEGATIVE BEHAVIOR AND UPBRINGING IN THE WORKS OF ABDURAUFG FITRAT AND MAHMUDHOJA BEHBUDI

This article analyzes the issues of negative behavior and upbringing in the works of the Jadid educators Abdurauf Fitrat and Mahmudhoja Behbudi from pedagogical and psychological perspectives. Special attention is paid to Fitrat's work "Family", where the author discusses moral education, voluntary and protest behavior, and their role in the formation of a child's personality. The study examines Fitrat's views on the development of children's moral qualities and the influence of parental attitudes and family environment on behavioral formation. In addition, Behbudi's drama "Padarkush" is analyzed as an example illustrating the psychological consequences of neglect in family upbringing and the lack of parental responsibility. The research employs theoretical analysis, comparative analysis, and generalization methods. The findings indicate that Jadid thinkers associated the emergence of negative behavior primarily with insufficient education, weak moral upbringing, and an unfavorable family environment. Their ideas emphasize the crucial role of family, parental example, and moral education in shaping a child's personality. The pedagogical and psychological views expressed in the works of Fitrat and Behbudi remain relevant today and can contribute to the development of modern educational and psychological research on child upbringing and behavior.

Keywords and concepts: Morality, education, good manners, bad manners, voluntary behavior, protest behavior, behavioral tendencies.

Kirish. Turkiston (Markaziy Osiyo) o'lkasida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida pedagogik-psixologik fikrlarning rivojlanishi hamda xalq maorifi ishlarini yuksaltirishda ilg'or ziyolilar – jadid ma'rifatparvarlarining xizmatlari kattadir. Bunda jadid adabiyotining yirik vakillari – Mahmudxoja Behbudi va Abdurauf Fitratning hissalar beqiyos. Ular maktablar ochib, muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklar bilan ta'minlash, aholining ma'naviy dunyoqarashini boyitish ishlarida rahnamolik qilganlar. Abdurauf Fitratning «Oila», Behbudiyning «Padarkush» asarlari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunalari. Bola xulq-atvori, farzand tarbiyasiga doir milliy adabiyotlarni o'rganish, tahlil etishda bu asarlarni ko'rib chiqish muhim ahamiyatga egaki, ularda o'ziga xos bo'lgan axloqiy qarashlar, xulq tasnifi (klassifikatsiyasi), fe'l-atvor (xulq va xarakter) xususiyatlari va tarbiya masalalari ko'tarilgan. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan bu g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan bo'lib, zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Jadid ma'rifatparvarlari merosi bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanlari uchun muhim ilmiy manbalardan hisoblanadi. Xususan, bola shaxsining shakllanishi, uning xulq-atvori va tarbiyasiga oid qarashlarni milliy pedagogik meros

asosida tahlil qilish zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Abdurauf Fitrat va Mahmudxoja Behbudi asarlarida farzand tarbiyasi, oilaviy muhit, ota-ona mas'uliyati, ijobiy va salbiy xulq-atvor shakllari haqida bildirilgan fikrlar bugungi kundagi psixologik tadqiqotlar bilan hamohangdir. Ayniqsa, bolalarda namoyon bo'ladigan negativizm, o'jarlik, qaysarlik kabi xulq shakllarining paydo bo'lishi, ularning tarbiyaviy omillar bilan bog'liqligi masalalari jadid mutafakkirlari asarlarida ham o'z aksini topgan. Shu sababli mazkur asarlarni pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish milliy ilmiy merosni chuqurroq anglash hamda zamonaviy tarbiya jarayonini boyitishga xizmat qiladi.

Muammoni qo'yilishi. Zamonaviy jamiyatta bolalar xulq-atvoridagi salbiy ko'rinishlar, jumladan agressivlik, negativizm, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar tobora ko'proq muhokama qilinayotgan muammolardan biridir. Ushbu muammolarni hal etishda faqat zamonaviy nazariyalarga emas, balki milliy pedagogik va ma'rifiy merosga ham murojaat qilish zarur. Jadid ma'rifatparvarlari asarlarida farzand tarbiyasi, oilaviy muhit va xulq shakllanishining omillari haqida muhim fikrlar ilgari surilgan bo'lsa-da, ularning psixologik jihatdan tizimli tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu bois Fitrat va Behbudi asarlarida aks etgan sal-

biy xulq-atvor masalalarini psixologik nuqtai nazardan o'rganish muhim ilmiy muammo sifatida qaraladi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi Abdurauf Fitrat va Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida yoritilgan salbiy xulq-atvor va farzand tarbiyasi masalalarini pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish hamda ularning zamonaviy tarbiya jarayoni uchun ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, ilmiy adabiyotlarni o'rganish, nazariy umumlashtirish, pedagogik va psixologik talqin qilish kabi usullardan foydalanildi. Shuningdek, jadid mutafakkirlarining asarlarida ilgari surilgan g'oyalarni zamonaviy psixologiya nazariyalari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali muammo kengroq yoritildi.

Asosiy natijalar. Abdurauf Fitrat o'zining «Oila yoki oilani boshqarish tartiblari» nomli asarida farzand tarbiyasi to'g'risida gapirar ekan, bola jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya uyg'unligida haqiqiy inson sifatida kamol topishini bayon etgan. Muallif tarbiya masalasida bola ruhiyati, ota-ona va farzand ruhiyatlarining nisbati, o'zaro bog'lanishi masalasiga alohida e'tibor qaratadi. «Odamning fe'l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim», deydi u. «Bolalarni o'ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o'z qadr-qimmatini, sha'nini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga yon-atrofida odamlar bilan hisoblashishni o'rgatmoq kerak... Bolalarni shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo'lgan intilishlari hech qachon xazon bo'lmasin... Ota-ona bolaga mamnunlik va xursandchilik qilishni man etmasliklari, balki axloqqa zid bo'lmagan ishlar bilan mamnun va xursand bo'lishini qo'llab-quvvatlashi kerak.» Fitrat bu ko'rsatmalari uning nafaqat pedagogik, balki psixologik bilimlar egasi ekanligini ham anglatib turibdi. [3; 5-b.]

Ziyoli taraqqiyparvar oila tarbiyasini yo'lga qo'yishda qo'llaniluvchi uslublar haqida ham so'z yuritib, tushuntirish, hikoya qilish, namuna ko'rsatish, rag'batlantirish, bolani haqoratlash va qo'rqitishdan saqlanish kabi uslublardan foydalanish oilada bolalar tarbiyasini tashkil etishda samarali ekanligiga e'tibor qaratadi. Uning qayd etishicha, «ertak orqali bo'lsa ham ularga (bolalarga) doim fidokor odamlar haqida, muruvvatli

shaxslarning fe'llari haqida, mo'min va Allohdan qo'rquvchi odamlar haqida hikoya qilib, yaxshi amallarning foydasini eslatib turish lozim. Devu pari, jin va cho'lu biyobon alvastilari haqidagi qissalarni bolalarga ayt manglar. Yomon xulq va ishyoqmaslikning zararlari haqida bolalarga aytib berish va zehniga buni joylash, ota-ona uchun ajibdur. Bunday hissa va hikoyalar vaqt o'tishi bilan eslaridan chiqsa, ta'siri zehnlari qoladi va hayotlariga katta ta'sir ko'rsatadi». [1; 189-190-b.]

Fitratning o'ziga xos axloqiy tarbiya nazariyasida ixtiyor erkinligi mayl tushunchasi orqali ifodalanadi. Olim inson fe'l mayllariga urg'u berar ekan, ularni ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriy fe'llarga ajratadi, bolada yaxshi axloqni tarbiya qilishda ixtiyoriy fe'llarni tuzatib foyda keltirishga aylantirish kerakligini ta'kidlaydi. Ixtiyoriy fe'llar mayl va istaklarda namoyon bo'lib, olim fikricha, ularning tasavvurda, muhokamada qaror qilib amal etishda katta ta'siri mavjud. Ixtiyoriy fe'llar foydali yoki zararli mazmundagi ishlarda aks etsa, ayrim ishlar ehtiros ta'sirida ham ixtiyoriy fe'l sifatida namoyon bo'lishi mumkin. «Faqat uch ixtiyoriy fe'lgina emas, balki e'tiroziy fe'l ham shu mayllarning ko'payishi va g'alayonning natijasidir. Masalan, odamning bir mayli xudbinlikdir. Kimning xudbinligi kuchli va yuqori darajada bo'lsa, agar birov uning nomus va sharafiga tajovuz qilsa, shu nafs g'alaba qiladi-da, o'sha tajovuzkor kishidan qasd olmoqchi bo'ladi. Ongining muhokamasi ham o'ch olishning zararlari emas, foydasini ko'rsatadi». [4; 292-293-b.]

Taraqqiyparvar olim ifodalagan ushbu «e'tiroziy fe'l» zamonaviy psixologiyada e'tirozli xulq sifatida, shuningdek, bolalar e'tirozi, o'ziga xos qarshilikning paydo bo'lishi sifatida yoshga oid inqiroz xususiyatlari, ichki ziddiyatlar, mahrumlik holatlari (deprivatsiya), tarbiya uslubi, oiladagi ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlar, tengdoshlar hamda aka-uka va opa-singillar bilan bo'lgan shaxslararo munosabatlar doirasida o'rganiladi. E'tirozli xulq-atvor (salbiy, yoki norozilik xulqi) negativizm, o'jarlik va qaysarlik kabi xulq shakllari sifatida namoyon bo'ladi. [7; 9; 39-b.]

Muallif «Iroda va ixtiyor» sarlavhasi ostidagi kichik bir bobida farzandni irodali qilib tarbiyalashga da'vat etadi va iroda tarbiyasining to'rt banddan iborat qoida-bosqichlarini taklif etadi. Bolani irodali qilib tarbiyalashda ota-onaning

zo'ri emas, balki bolaga beriladigan erkinlik, uning o'z azm-u irodasi bilan ish tutishi muhimroq ekanligini ta'kidlaydi. [1; 190-b.]

Farzandlarini komil inson sifatida tarbiyalashni maqsad qilgan ota-onalarga mayl tarbiyasidan tashqari quyidagilarga ahamiyat berishni tavsiya qiladi:

1. Bolaning badan va fikriy tarbiyasida hech qanday sustkashlikka yo'l bermasinlar, chunki qaysi inson sog'lom tan va aqldan mahrum bo'lsa, azm va irodasi ham nuqsonlarga g'arq bo'lgan bo'ladi.

2. Bolalarning huzurlarida ota-ona o'z azmu sabotlarini zaif, irodalarini nuqsonli qilib ko'rsatmasinlar, toki go'dak buni ko'rib ibrat uchun taqlid qilmasin.

3. Bolalarga buyuk va aqlli, irodali insonlar haqida ertak va afsonalarni ibrat uchun ko'proq aytib berish lozim.

4. Farzand o'z iroda va azmiga qarab harakat qilishi zarur. Agarda bola har qanday ishni ota-onaning zo'ri bilan qilsa, irodasi zaif va nuqsonli bo'ladi. Ulg'aygandan keyin ham bola o'zicha iroda bilan biror ishni bajara olmaydi. Haqiqatan, bolaning harakat va fe'lidan xabarador bo'lib turib, behuda ishlardan qaytarish kerak. Lekin buni bolaning azm-u irodasiga zarar yetkazmasdan qilish durust, ya'ni shirin so'zlar va pandlar bilanki, haqorat va urish bilan emas. [4; 300-b.]

Shuningdek, olim farzandni doim so'kish ota-onaga obro' keltirmasligi, bir farzandni boshqasidan ko'proq sevmok bolalar o'rtasida adovatni uyg'otishi mumkinligi, ota-onaning bola mayliga to'sqinlik qilmasligi lozimligini bayon etadi. Farzandlarning kelajakda qanday shaxs bo'lib voyaga yetishlari, ularga onalari nima bera olganliklariga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Demak, Fitrat qarashlarida bolaning salbiy xulq-atvori yuzaga kelishi irodaviy, ixtiyoriy va ixtiyorsiz mayllarning noto'g'ri tarbiya qilinishi, asosan, ota-onaning noto'g'ri tarbiyaviy ta'siri bilan bog'liq ekan.

Mahmudxo'ja Behbudiyini ham ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, oilada bola tarbiyasi, ta'lim-tarbiya sohasida ota-ona ibrat roli qiziqtirib kelgan. Behbudiy yashagan davrdagi oilaviy muhit va ota-o'g'il munosabatlari «Padarkush» asarining yaratilishiga asos bo'ldi. Asardagi voqea boy bilan uning o'g'li Toshmurod (ota-bola) o'rtasidagi oddiy bir muoma-

ladan boshlanadi. Asarda boy savodsiz ekan, o'g'li Toshmurodni ham o'qitmagani, uning tarbiyasiga befarqligi, natijada bola odobsiz, maqtanchoq, o'jar, mol-dunyoga o'ch bo'lib voyaga yetgani tasvirlanadi.

Asar Toshmurodning ichkilikbozlikka va maishiy buzuvchilikka berilib ketishi, boyning o'z o'g'li qo'lida o'ldirilishi bilan yakunlanadi. Behbudiy asardagi bu voqeani tasvirlash bilan bola shaxsining shakllanishida asosan ota-ona mas'ul ekanini ta'kidlaydi. Asarda ibrat doimo ijobiy sifatga ega bo'lmasligi, asarda bola otadan ibrat olib, salbiy jihatlarni o'zlashtirgani tasvirlanadi. Demak, bola ibrat olishda doimo yaxshi ob'ektlarga ergashmay, yomon xislatlarga taqlid qilishi ham mumkin ekan. [2; 8; 46-b.]

Agar oila deb atalmish dargohni ham davlatga qiyoslaydigan bo'lsak, oila podsholari bo'lmish ota-onalar o'z xalqlari – farzandlariga xulqi bilan ibrat ekanliklarini unutmagan holda, o'zaro nizolari, janjallari, o'ta qattiqqo'l munosabatlari bilan bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir etishlari, o'z hurmatlari, obro'sini yo'qotishlari, farzandlarning ham badfe'l, tundxo'y va sarkashlikni o'zlariga odat qilishlariga sababchi bo'lishlari mumkinligini anglamoqliklari muhimdir. Oilada ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlari qanchalik yaxshi, mustahkam bo'lsa, oilada sog'lom muhit shakllanadi, har bir oila a'zosi o'zida yaxshi sifatlarni, shaxs fazilatlarini shakllantiradi va fe'l-atvori bilan jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazadi. Aksincha, agar oila notinch bo'lsa, unda ulg'ayib borayotgan farzand ruhiyatida ham salbiy o'zgarishlar paydo bo'ladi. Bu o'zgarishlar keyinchalik mustahkamlanib uning xulqiga, xarakteriga aylanishi mumkin. Bu esa jamiyatga ham ta'sir etmay qolmaydi, albatta. [6; 514-b.]

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadid ma'rifatparvarlari asarlarida farzand tarbiyasiga oid ilgari surilgan g'oyalar zamonaviy pedagogika va psixologiya nazariyalari bilan uyg'unlik kasb etadi. Fitratning ixtiyoriy va e'tiroziy fe'llar haqidagi qarashlari hozirgi psixologiyada o'rganilayotgan motivatsiya, iroda va xulq regulyatsiyasi masalalari bilan yaqin bog'liqdir. Behbudiyning «Padarkush» asarida esa noto'g'ri tarbiya va ota-ona beparvoligi natijasida yuzaga keladigan salbiy xulq-atvorning

dramatik oqibatlarini tasvirlangan. Bu holat oilaviy tarbiya jarayonida ota-onaning mas'uliyati va ijtimoiy muhitning ta'siri naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. Ushbu g'oyalar zamonaviy pedagogik amaliyotda ham yosh avlodni tarbiyalashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Jadid namoyandalari asarlarida yoritilgan xulq, odob, farzand tarbiyasi to'g'risidagi turli mulohazalar, qarashlarni tahlil etib, shuni aytish mumkinki, salbiy xulq-atvor va unga yondosh xulq shakllari badfe'llik, pastlik sifatida qorallangan hamda ahmoqlik, nodonlik darajasida baholangan. Ularning qarashlarida yomon xulqning asoslari sifatida ilm va ma'rifat, tarbiyaning kamligi asosiy omil sifatida ko'riladi. Ularni ijobiy xulq shakllariga o'zgartirish, bolalar

ta'limi va tarbiyasida yaxshi xulq sifatlarini shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning ahamiyati ochib berilgan, farzand tarbiyasiga doir ijtimoiy, pedagogik va psixologik jihatlar ilmiy asoslangan.

Buyuk ma'rifatparvarlar ilgari surgan ta'lim-tarbiyaviy, ilmiy-pedagogik qarashlar bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatini yo'qotmagan va barchamiz uchun ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Bu asarlarni pedagogik-psixologik nuqtai nazaridan o'rganish, ularni zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yosh avlodni ma'naviy barkamol, irodali va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, jadidlar merosini o'rganish, hayotga, ilm-fan va amaliyotga tatbiq etish ilmiy jamoatchilik zimmasidagi asosiy burchlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova Z.E. Abdurauf Fitrat merosida oilaviy tarbiya masalalarini yoritilishi // "O'zbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyot uyg'unligi" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, O'zbekiston Milliy universiteti "Psixologiya" kafedrası, 2021 yil 15 aprel. B. 187-190.
2. Behbudiy. Tanlangan asarlar. - T.: "Ma'naviyat", 1999.
3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari // Mas'ul muharrir: D.A. Alimova. Tarj. va izohlar muallifi Sh. Vohidov. - 2-chi nashr - T.: "Ma'naviyat". 2000 - 112 b.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar: Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar // Abdurauf Fitrat; Mas'ul muharrir B. Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboyev. — T.: «Ma'naviyat», 2009. 336 b.
5. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati; tahrir hayati: X. Sultonov va boshq.; tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. 760 b.
6. Otaxonova S.T. Navoiy asarlarida salbiy xulq-atvor xususiyatlarining pedagogik-psixologik talqini // Alisher Navoiy va XXI asr, Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari, Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU, Toshkent, 2020. B. 513-514.
7. Tulkinovna O.S. Psychological aspects of protest behavior of preschool children. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 12, 2020 Part II., P. 39-43.
8. Qosimova N.D. O'smirlar ijtimoiylashuvida ibrat ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ahamiyati//Ps.f.n.ilmiy darajasinin olish uchun yozilgan diss., Toshkent, 2010.
9. <https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/12/Full-Paper-PSYCHOLOGICAL-ASPECTS-OF-PROTEST-BEHAVIOR-OF-PRESCHOOL-CHILDREN.pdf>